

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy tashrif bilan Turkmanistonda bo'ladi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning taklifiga binoan 20-21-oktabr kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, ikki tomonlama va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalarni muhokama qilish uchun oliy darajadagi muzokaralar bo'lib o'tadi.

Asosiy e'tibor O'zbekiston-Turkmaniston strategik sheriklik munosabatlarini yangi bosqichda yanada mustahkamlash, sanoat, energetika va kimyo tarmoqlarida, qishloq xo'jaligi, transport va logistika sohalarida kooperatsiyani kengaytirish, faol madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirish masalalariga qaratiladi.

Sammit yakunida hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ikki tomonlama hujjatlarning salmoqli to'plamini qabul qilish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, tashrif davomida Ashxobod shahrida "Toshkent" bog'ini ochish va Chegaraoldi savdo markazini qurish bo'yicha loyihani birgalikda boshlab berish rejalashtirilgan.

Manba